



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI



"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-256-16-14, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru,
new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Shermatov Jaxongir Rasulovich



2026 - yil 3 - martdagi 274924 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: "Yangi avlod" maxsus sanoat zonasi uchun gaz taqsimlash va tarqatish tarmoqlarini qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish. I-bosqichi.

Buyurtmachi: YANGI AVLOD MAXSUS SANOAT ZONASI BOSHQARUVCHI KOMPANIYASI MCHJ

Bosh loyihachi: "MAGNUM GAS PROJECT" mas'uliyati cheklangan jamiyati

Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan

Bosh pudratchi: Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi

Qurilish turi: Yangi qurilish

Murojaat raqami: 109891

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-martdagi "Toshkent shahrida "Yangi avlod" maxsus sanoat zonasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-138-sonli qarori.

1.2. 2025-yil 29-mayda taqdim etilgan 1726-1726292-222883-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. "Yangi avlod maxsus sanoat zonasi boshqaruvi kompaniyasi" MCHJ bosh direktor v. b. F. Abdusolomov tomonidan 2025-yil 21-oktabrda tasdiqlanib, rasmiylashtirilgan texnik topshiriq.

1.4. "Hududgaz Poytaxt" GTF tomonidan tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga 2025-yil 30-yanvarda taqdim etilgan 111251-sonli va 2025-yil 10-oktabrda taqdim etilgan 183661-sonli texnik shart.

1.5. "Absolyut-Klassik" MChJ tomonidan 2025-yilda taqdim etilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosasi.

1.6. "Yangi avlod maxsus sanoat zonasi boshqaruvi kompaniyasi" MCHJ va "Magnum Gas Project" MChJ o'rtasida 2025-yil 23-iyunda rasmiylashtirilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 05/14-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha hujjatlari "ishchi loyiha" bosqichida quyidagi qismlardan iborat.

- Loyihaning umumiy tushuntirish xati.

- Qurilishni tashkil etish loyihasi (Albom-POS).

- Loyiha bosh rejasi (Albom-GP).
- Gaz ta'minoti tizimi (Albom-GSN).
- Korroziyadan himoyalash yeychilari (Albom-ZOK).
- Qurilishning boshlang'ich smeta hisob-kitoblari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish obyekti hududining o'ziga xos xususiyatlari.

"Yangi avlod" maxsus sanoat zonasi uchun gaz taqsimlash va tarqatish tarmoqlarini qurish obyekti Toshkent shahar, Yangiheyot tumanida joylashgan.

- Hududning zilzilabardoshlik ko'rsatkichi-8 ball.
- Cho'kish bo'yicha tuproq sharoitlarining turi-I (birinchi).
- Seysmik xususiyatlari bo'yicha tuproq toifasi-II (ikkinchi).
- Tuproq muzlashining maksimal chuqurligi-0,7 metr.

Poydevorlarning asosi bo'lib IGE-1 va IGE-2 gruntleri xizmat qiladi.

IGE-1: qumoq tuproqlar lyossimon, qumoq qatlamli, qo'ng'ir rangli, kam namlikdan namlikkacha, shag'al aralashgan, qo'shimcha yuklamalar ta'sirida cho'kuvchan.

Elementning ochilgan qalinligi 0,3-1,5 metr.

IGE-2: qum-gilli to'ldirgichli, shag'al va xarsang toshlar qo'shilgan, cho'kuvchan bo'lmagan shag'allar.

Elementning ochilgan qalinligi 1,5-2,7 metr.

Gruntlar sho'rlanmagan, portlandsementli betonlarga agressiv hisoblanmaydi.

Gruntlarning korrozion faolligi: po'latga-o'rtacha, alyuminiy va qo'rg'oshinga-yuqori.

Qidiruv ishlari davrida (2025-yil aprel) yer osti suvlari yer yuzasidan 1,7-2,5 metr chuqurlikda ochilgan. Hisoblangan maksimumga yer osti suvlarini 0,5-1,1 metr chuqurlikda kutish belgilangan.

3.2. Konstruktsiya yechimlari.

Loyiha bilan "Yangi avlod" maxsus sanoat zonasi hududini istiqbolli rivojlantirish va alohida LOTlarni bosqichma-bosqich ishga tushirishni hisobga olgan holda, uning chegaralarida joylashtiriladigan ishlab chiqarish, sanoat va yordamchi obyektlarni tabiiy gaz bilan ta'minlash uchun o'rta bosimli gaz ta'minotining yagona markazlashtirilgan tizimini yaratish nazarda tutilgan.

Hududda transformator podstansiyalari yaqinida joylashtirilgan 6 ta anodli yerga ulagichli katod stansiyalarini o'rnatish ko'zda tutilgan.

Elektrokimyoviy himoya tizimi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- katod stansiyalari;
- anodli yerga ulagichlar;
- kabel liniyalari;
- nazorat punktlari va nazorat naychalari.

Alohida turuvchi beton poydevorlarga o'rnatiladigan metall elementlardan tayyorlangan katod stansiyasi.

100 mm qalinlikdagi qumli tayyorgarlik bo'yicha 100 mm qalinlikdagi beton asosga o'rnatiladigan cho'yan lyukli K7,3 turidagi yig'ma temir-beton quduqlardan iborat nazorat-o'lchov punkti.

3.3. Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Obyektning yakuniy smeta xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11-iyun 2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga asosan ishlab chiqilgan. Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan obyektning ekspertiza ko'rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa harajatlarisiz QQS bilan hisoblanganda- 43 559 216 368 so'mni tashkil etdi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Gaz ta'minoti tizimi.

Loyiha hujjatlari ShNQ 2.04.08-22 va "Hududgaz Poytaxt" GTF tomonidan tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga 2025-yil 10-oktabrda taqdim etilgan 183661-sonli texnik shartga asosan bajarilgan.

Gaz ta'minoti loyihasida quyidagi ish turlari nazarda tutilgan:

- o'rtacha bosimli gaz ta'minotining yagona tizimini shakllantirish;
- foydalanishga topshirilishiga qarab LOTlar va alohida korxonalarni bosqichma-bosqich ulash imkoniyati;
- magistral gaz quvurlarini tubdan rekonstruksiya qilish zaruratisiz hududning istiqbolli rivojlanishini ta'minlash.

Qurilish maydoni nisbatan tekis relyef, xavfli geologik jarayonlarning yo'qligi bilan ajralib turadi, hududning seysmikligi bundan mustasno. Mavjud qurilishlar va muhandislik tarmoqlari gaz quvurlarini trassalashda va ularni yotqizish chuqurligini tanlashda hisobga olingan.

Gaz quvurlari asosan yer osti usulida maydon ichidagi avtomobil yo'llari bo'ylab yotqiziladi, bu quyidagilarni ta'minlaydi:

- qurilishning qulayligi;
- boshqa muhandislik tarmoqlari bilan kesishuvlarni minimallashtirish;
- foydalanish va xizmat ko'rsatish uchun qulaylik;
- atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish.

Hududning muhandislik-geologik sharoitlari, iqlim omillari va funksional vazifasini hisobga olgan holda, qabul qilingan loyiha yechimlari gaz ta'minoti tizimining butun me'yoriy xizmat muddati davomida ishonchli va xavfsiz ishlashini ta'minlaydi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar qurilish Bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organing 2025-yil 11-noyabrdagi 199758879-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali, Davlat ekologik ekspertizasining 2026-yil 22-yanvardagi 01-02/01-6739-sonli ijobiy xulosasi.

5.3. Loyiha-smeta hujjatlari loyihachi tomonidan tasdiqlanib, smeta qiymatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo'shimcha taklif va e'tirozlari mavjud emas.

5.4. Loyiha bosh rejasi hokimi tomonidan tasdiqlangan hamda Toshkent shahar Arxitektura va qurilish Bosh boshqarmasi va "Yangi avlod maxsus sanoat zonasi boshqaruvi kompaniyasi" MCHJ bilan kelishilgan.

5.5. Loyiha hujjatlari "Hududgaz Poytaxt" GTF bilan hamda "Hududgaz Poytaxt" GTF yuqori bosimli yer osti gaz quvurlaridan foydalanish shaxobchasi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **43 559 216 368** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **2 360 449 211** so'mga kamaytirilib,

41 198 767 157 so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **35 104 421 170** so'm

Asbob-uskunalar: **1 680 192 363** so'm

QQS: **4 414 153 624** so'm

6.1. Ekspertiza jarayonida soha ekspertlari xulosalarining izohlariga muvofiq loyiha-smeta hujjatlariga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

Dastlabki smeta hujjatlari hisob-kitobini kamaytirilishi yoki pasayganligi resurs smeta me'yorlari, qurilish materiallarining narxlarini aniqlashtirish orqali qayta hisoblash natijasida o'zgartirildi.

Shu jumladan, qiymati 1 680 192 363 so'm bo'lgan import qilingan texnologik asbob-uskunalar va jihozlarni xarid qilish va yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlar ekspertiza tomonidan ko'rilmadi.

6.2. Shuningdek, buyurtmachi, loyiha va bosh pudrat tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-sonli Farmoni talablariga qat'iy rioya qilinsin.

6.3. Smeta hujjatlariga asosan qurilish ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori Nizomining 3-bob, 29-bandiga muvofiq, Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

6.5. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan buyurtmachi va pudratchining boshqa xarajatlari miqdori bo'yicha "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi" DM majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

6.6. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.7. Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdor buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

6.8. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-sonli Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-sonli qarori talablariga rioya etilgan holda hamda ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, "Toshkent shahar, Yangi hayot tumani, "Yangi avlod" maxsus sanoat zonasi uchun gaz taqsimlash va tarqatish tarmoqlarini qurish" obyektining ishchi loyiha hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishish uchun

tavsiya etiladi.

Ishtirokchi ekspertlar: Vakurova Irina Vladimirovna, Yuldasheva Nigora Ilxamovna,
Karabayeva Dilfuza Xudaybergenovna

Bosh ekspert



**KASIMXODJAYEV
SAIDJAMOLIDDIN
SAYDASRAROVICH**